


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

G‘ulom Yuldashev, Murodjon Isag‘aliyev

KONUS YOYILMA SUG‘ORILADIGAN
TUPROQLARINING GEOKIMYOVIIY
TADQIQOTLAR METODIKASI



Farg‘ona - 2012

O'quv-uslubiy ko'llanma tuproqshunoslik, agrokimyo va agrotuproqshunoslik, biologiya, geografiya, ekologiya va tabiatdan foydalanish, fermer xo'jaligini tashkil qilish va yuritish, kasb ta'limi: agronomiya yo'nalishlari talabalari, soha mutaxassislari hamda ilmiy-tadqiqotchilari uchun yozilgan.

Farg'ona davlat universitetining 2012 yil 28 dekabrda 4-soni Ilmiy Kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

D.Xoldarov

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

O.Abdug'aniyev

geografiya fanlari nomzodi

KIRISH

Tabiiy va antropogen omillar ta'sirida asrlar davomida shakllangan geokimyoviy landshaftlar tuproqlarining genetik qatlamlarida, onalik jinslarida tipomorf makro- va mikroelementlarning qayta taqsimlanishi yuz beradi. Bu holat landshaft bloklarda, xususan tuproqdagi har xil yangi yaralmalarda, ya'ni temirli, marganetsli, kalsitli, gipsli hamda suvda eruvchi tuzlar, gumus, kamyob elementlar va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Makro- va mikroelementlarning migratsiya qobiliyati, elementlar assotsiatsiyasi, geokimyoviy baryerlarning shakllanishi tuproqlarning aniq qatlamlari va tuproq hosil bo'lish jarayoni bilan bog'liq. Shuni ham unutmaslik kerakki, bir qator elementlarning kumulyativ ta'siri aynan sug'oriladigan tuproqlarning geokimyoviy baryerlarida namoyon bo'ladi.

Konus yoyilma landshaft bloklarida sug'oriladigan, xususan voha tuproqlarida geokimyoviy aloqalar juda oz, cheklangan miqdordagi elementlar va moddalar uchun tadqiq etilgan. Bu holat tuproqlarning bir qator xossa va xususiyatlari bilan bog'liq.

Shu bois hududda, jumladan Farg'ona viloyatining janubiy qismidagi So'x konus yoyilmasida hozirgi zamon talabiga mos yuqori samaradorlikka ega dehqonchilik olib borish uchun yoyilmada geokimyoviy baryerlarni, geokimyoviy va elementar landshaft bloklari o'rtasidagi aloqalarni tuproq – o'simlik, genetik qatlamlar – onalik jinslar zanjirida sug'oriladigan va har xil qalinlikdagi voha tuproqlarida tadqiq etish, tuproq-geokimyoviy jarayonlarni, biogeokimyoviy provinsiyalarni, agroiirrigatsion qatlamlarni, tuproqlarni sho'rlanish jarayonlarini boshqarishga olib keladi. Ushbu holatlar konus yoyilmalarni sug'oriladigan tuproqlarini tadqiq etishning geokimyoviy usullarini ishlab chiqish va onalik jins – tuproq – o'simlik zanjirida elementlarini geokimyoviy xususiyatlarini o'rganish zaruriyatiga olib keladi.

Mintaqaviy geokimyoviy provinsiyalarning asosiy tuproq tiplarida geokimyoviy baryerlarning tiplari, makro- va mikroelementlarning migratsiya jarayonlari, tarqalishini rayonlashtirish masalalari, migratsiya sharoiti bir qator elementlar uchun M.A.Glazovskaya (1982), A.I.Perelman va boshqalar (1975), I.P.Gavrilova va boshqalar (1977) tomonidan o'rganilgan.

Geokimyoviy landshaft tizimi va ularning aloqadorligi B.B.Polinov tomonidan ishlangan. Geokimyoviy landshaftlarning funksiyasi, strukturasi esa M.A.Glazovskaya, F.I.Kozlovskiylar (1987) tomonidan tadqiq etilgan.

Paxtachilikda qo'llaniladigan mikroelementlar O'zbekistonning sug'oriladigan tuproqlarida Kruglova, Aliyeva va boshqalar (1984) tomonidan o'rganilgan.

Geokimyoviy landshaftlarda cheklangan sonli mikroelementlarning geokimyosi va biogeokimyosi o'rganilgan bo'lib, amaliy jihatdan kam o'rganilgan, o'rganilmagan elementlar uchun pedogeokimyoviy xususiyatlar bo'z tuproqlar va cho'l mintaqasining sug'oriladigan tuproqlari uchun tadqiq etilmagan. Qolaversa,

antropogen omilning turli xil ta'siridagi konus yoyilmada shakllangan sug'oriladigan va har xil qalinlikdagi agroirrigatsion qatlarga ega tuproqlarning geokimyoviy xossalari o'rganish metodikasi yetarli darajada ishlanmagan.

Bir guruh makro- va mikroelementlar, xususan Fe, K, Na, Ba, zaharli metallar hisoblangan surma, mishyak, kadmiy, simob, kam o'rganilgan va o'rganilmagan elementlar (Kist 1987) litiy, stronsiy, seziy, kadmiy, oltin, skandiy, iterbiy, lantan, qalay, uran, toriy, samariy va boshqalar ushbu geokimyoviy landshaftlarda tuproqning genetik qatlamlari – onalik jinsi, tuproq – o'simlik zanjirida amaliy jihatdan tadqiq etilmagan. Shuningdek, keltirilgan elementlar ushbu elementar landshaft bloklari uchun fon hamda tuproq-geokimyoviy provinsiyalar ishlanmagan, ishlash usuli ham qoniqarli emas.

Daryo sohillari va konus yoyilmasi tuproqlariga morfogenetik, landshaft-geokimyoviy tadqiqot usullari orqali majmuaviy tavsif berish va elementar geokimyoviy jarayonlarda, ya'ni tuproq – o'simlik – tuproq hosil qiluvchi jinslar tizimida elementlarning biogeokimyoviy migratsiyasi va agrogeokimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish metodikasi bilan talaba va tadqiqotchilarni tanishtirish uslubiy ko'rsatmaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Voha va sug'oriladigan tuproqlar uchun optimal agrogeokimyoviy va pedogeokimyoviy muhitni ilmiy asoslash uchun makro- va mikroelementlarning miqdori, nisbatlari, shakllari va boshqalarning geokimyoviy landshaft zanjirida o'rganish usullarini takomillashtirish muhim sanaladi.

Uslubiy ko'rsatmada tadqiqotlarni olib borish metodikasi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilgan va tavsiya etilgan.

- ❖ Tuproq qoplamining geokimyoviy xususiyligini, geokimyoviy baryerlarini, elementlarning migratsiya, tarqalish va konsentratsiya jarayonlarini o'rganish.
- ❖ Subakval, superakval, elyuvial holatdagi tuproqlarning agrogeokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, pH, Eh, geokimyoviy muhitni va boshqa omillarni xloridlar, sulfatlar, karbonatlar, oksidlar va alohida kation, anionlarning migratsion oqimlariga ta'sirini tadqiq etish.
- ❖ Alohida olingan makro- va mikroelementlarning etishmovchi yoki ortiqcha biogeokimyoviy provinsiyalarini, elementar landshaftlarning asosiy blokining xususiyligini kimyoviy tarkibini va geokimyoviy xossalari o'rganish.
- ❖ Voha va sug'oriladigan tuproqlarda bir qator makro- va mikroelementlarning hamda Fe, K, Na, Ba va boshqalar uchun klark va fon miqdorlarini aniqlash va misollar tariqasida pedogeokimyoviy baryerlarni ajratish, turli geokimyoviy kattaliklarni hisoblash va boshqalar keltirilgan.

Tadqiqot obyekti va predmetini tanlash

Misol tariqasida Fargʻona viloyatining janubiy-gʻarbiy qismidagi Soʻx daryosi konus yoyilmasida shakllangan choʻl mintaqasi va boʻz tuproqlar mintaqasida sugʻoriladigan tuproqlari tanlangan. Tadqiqot obyektni tadqiq qilishda tuproq-sxematik elektron xaritadan foydalaniladi va unga koʻra tadqiqot oʻtkazilgan hududning choʻl mintaqasi va boʻz tuproqlar kamarida tuproq tiplari va tipchalari aniqlanadi.

Boʻz tuproqlar kamarida obyektni tanlash.

Past togʻlarda kristall jinslar ustida, togʻ oldi qiya tekisliklarda, adirlarda allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar va skeletli elyuvial, delyuvial togʻ jinslari ustida shakllangan, bugʻdoy maydonidagi sugʻoriladigan kuchsiz yuvilgan toʻq tusli boʻz tuproqlar. Lyosslar ustida shakllangan kuchli va oʻrtacha yuvilgan tipik boʻz tuproqlar. Bugʻdoy ekilgan maydon. 1-2 m chuqurda yotgan tosh va shagʻallar ustida shakllangan, oʻrta qumoq mexanik tarkibli, eroziyalanmagan sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar. Bugʻdoy dalasi.

Choʻl mintaqasi tuproqlarida obyektni tanlash.

Allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar ustida shakllangan sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir tuproqlar. 0,5-1 m chuqurda yotgan tosh-shagʻallar ustida shakllangan oʻrta, engil qumoq va qumoq mexanik tarkibli, oʻrtacha qalinlikka ega boʻlgan eskidan sugʻoriladigan kalmotajlangan tuproqlar. Engil va oʻrta qumoqli mexanik tarkibga ega boʻlgan qatlam-qatlamli yotqiziqlar ustida shakllangan, kuchsiz va oʻrtacha darajada shoʻrlangan eskidan sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlar. Konus yoyilma chekkalari, konuslar oraligʻida shakllangan yangidan sugʻoriladigan oʻrtacha va kuchli darajada shoʻrlangan, 0,5-1,2 m chuqurlikda gips toʻplamlariga ega boʻlgan oʻtloqi saz tuproqlar.

Tadqiqot predmetini agrolandshaftlarda tuproq qoplamining agrogeokimyoviy xususiyatlarini, geokimyoviy baryerlarni, kimyoviy elementlarning migratsiya jarayoni, tarqalishi, akkumulyatsiyasini oʻrganish. Sugʻoriladigan va voha tuproqlarida, onalik jinslarida makro- va mikroelementlarning, xususan Fe, K, Na, Ba larning tarqalish va akkumulyatsiya qonuniyatlarini, klark va fon miqdorlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullarini tanlash

Tadqiqotlarda asosiy usul tariqasida V.V.Dokuchayevning morfogenetik usulidan foydalaniladi. Bundan tashqari M.A.Glazovskaya (1981) va A.I.Perelmanlarning (1975) pedogeokimyoviy yondashuv usullari ham qoʻllaniladi.

Tuproq-geokimyoviy xossa va xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida yopiq landshaft-geokimyoviy tizim ishlanadi. Bulardan tashqari konus yoyilma, adirlar va

past tog'liklarni qamrab oluvchi, nisbiy balandliklari e'tiborga olingan holda, butun tadqiqot hududi uchun landshaft-geokimyoviy profil ishlanadi.

B.B.Polinov, M.A.Glazovskaya va ularning izdoshlari tomonidan tuproqlar geografiyasi va landshaft geokimyosi uchun ishlangan nazariy va uslubiy ishlanmalardan foydalaniladi.

Bo'z tuproqlar va cho'l mintaqasi tuproqlarini fizikaviy, kimyoviy, agrokimyoviy tahlili sug'oriladigan, paxtachilik rayonlarida qo'llaniladigan Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan nashr etilgan "Agrokimyoviy, agrofizikaviy va mikrobiologik tadqiqot usullari" (SoyuzNIXI, 1963, 1977), yozuvlari asosida olib boriladi.

Tuproq, o'simlikni element tahlili O'zFA aktivatsion analiz laboratoriyalarida hamda spektrofotometrlarda o'tkaziladi. Suvda eruvchi tuzlarni aniqlash umumqabul qilingan usulda (SoyuzNIXI, 1963, 1977), singdirilgan kationlar Pfeffer usuli bilan, T.P.Kryuger modifikatsiyasida asosida aniqlanadi.

Gumus Tyurin usuli bilan, boshqa agrokimyoviy tahlillar yuqorida zikr etilgan (SoyuzNIXI, 1963, 1977) umumqabul qilingan usullarda va E.V.Arinishkinaning «Rukovodstvo po ximicheskomu analizu pochv» (1970) yozuvlari asosida bajariladi. Tuproq eritmasi LS-30 sentrofugasi yoki supersentrafugalar yordamida olib boriladi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash esa EHM da R.Qo'ziyev, G'.Yuldashev va boshqalar (2004) usuli bilan. Rasmlar, grafiklar va ayrim matematik ishlovlar Macromedia Flash va Microsoft Excel dasturlari asosida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Tuproq morfologiyasi va mexanik tarkibini tadqiq etish


Misol uchun tanlangan So'x daryosi sohillarida tik mintaqaviylikka asosan shakllangan to'q tusli, tipik, och tusli bo'z tuproqlar keng tarqalgan. So'x konus yoyilmasining cho'l qismida sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir, o'tloqi saz va saz tartibotli sho'rxoklar shakllangan.

Tadqiqotga tortilgan tuproqlarning morfologik belgilari asosan, ularning mintaqaviyligiga to'g'ri keladi va har xil mexanik tarkibga ega bo'lishi mumkin.

Tuproqlarning mexanik tarkibi, ularning onalik jinslariga bog'liq bo'lib, elyuvial yotqiziqlar, lyoss va lyossimon jinslar, tosh-shag'alli, chang jinslarda o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Olingan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, nisbatan baland tog'larning tuproqlari, xususan to'q tusli bo'z tuproqlarning mexanik tarkibi og'irroq, bu holat tuproq va onalik jinslarining nisbatan ko'proq nuraganligi, gumidlik darajasini va yoshini yuqoriligi bilan ifodalanadi (1-rasm). Bu tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra og'ir guruhga kiradi, ularda fizik loyqa miqdori 47-52% bo'lib, onalik jinslarida 41,3% ni tashkil qiladi va tuproq usti jinslari o'rta mexanik tarkibli guruhga mansub

ekanligini quyidagi grafik chizmalarda ifodalash yaxshi natija beradi, ya'ni tadqiqot sifatini oshiradi.




1-rasm. Sug'oriladigan bo'z mintqa tuproqlarining mexanik tarkibini tavsiflash.

Ushbu misolimizdagi sug'oriladigan tipik va och tusli bo'z tuproqlar o'rta qumoq mexanik tarkibli bo'lib, ularda fizik loyqa 32,6-42,5% ni tashkil qiladi.

Konus yoyilmaning quyi, ya'ni cho'l mintaqasi tuproqlarida mexanik tarkib biroz o'zgarishi mumkin. So'x konus yoyilmasi tuproqlari va ularning onalik jinslari har xil mexanik tarkibga ega. Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning mexanik tarkibi, ularning onalik jinslarini allyuvial-prolyuvial genezisga ega ekanligi bilan bog'liq holda shakllangan.

Bu holatlarni ham 1-rasmdagi kabi alohida (2-rasm) tasvirlash mumkin yoki birlashtirilsa ham bo'ladi.



2-rasm. Cho'l mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarining mexanik tarkibini tasvirlash.

Bo'z tuproqlar kamari va cho'l mintaqasi tuproqlarining suvda eruvchi tuzlari geokimyosini tadqiq etish

Sizot suvlari oqmas yoki deyarli oqmas cho'llarning tuproqlari va sizot suvlarida galogeokimyoviy jarayonlar sodir bo'ladi. Cho'l mintaqasi, xususan Markaziy Farg'onada, konus yoyilmalarda galogenez asosiy landshaft shakllantiruvchi jarayon hisoblanadi. Bu hududda galogeokimyoviy va galogenetik jarayonlar bilan bir qatorda ko'plab makro- va mikroelementlarning migratsiyasi landshaft-geokimyoviy profil asosida tadqiq qilinadi (3-rasm). Bunda eng asosiy ish landshaft-geokimyoviy profilni (kesmani) ishlash va unga mazmun berish hisoblanadi.


Galogeokimyoviy jarayonlarda kationogen (Ca^{+2} , Mg^{+2} , K^{+} , Na^{+}), anionogen (Cl^{-} , SO_4^{-2} , HCO_3^{-} , CO_3^{-2} , NO_2^{-} , NO_3^{-} , $\text{H}_2\text{PO}_4^{-}$ va boshqalar) elementlar va ion guruhlari, qaysiki xloridli, sulfatli, karbonatli, gidrokarbonatli, nitratli va nitritli kabi oddiy va ikkinlangan tuzlar hosil bo'ladi.

Bo'z tuproqlar sho'rlangan, sho'rlanmagan bo'lishi mumkin. Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir tuproqlar quruq qoldiq, xlor, sulfatlar bilan kesma bo'yicha sho'rlanmagan. Quruq qoldiq miqdori 0,10-0,12% atrofida tebranadi.

Biz tadqiq etgan voha kalmotajlangan tuproqlari sho'rlanmagan bo'lib, quruq qoldiq miqdori 0,21-0,22% atrofida tebranadi.

Voha va sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlari o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan, quruq qoldiq 1,1-2,7% atrofida bo'lib, sho'rlanishning ion tipiga ko'ra

xlorid-sulfatli. Kalmotajlangan tuproqlarda $MgSO_4$ va $NaCl$ tuzlari sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir tuproqlarga nisbatan koʻproq yoki kamroq boʻlishi mumkin, bizning misolimizda koʻproq.



1-qoya toshli jinslar; 2-qadimiy nurash qobigʻi; 3-allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar; 4-akkumulyativ yotqiziqlar; 5-sizot suvlaridan landshaftga moddalar oqimi; 6-sizot suvlariga landshaft bloklaridan moddalar oqimi; 7-toʻq tusli boʻz tuproqlar; 8-tipik boʻz tuproqlar; 9-och tusli boʻz tuproqlar; 10-sur tusli qoʻngʻir tuproqlar; 11-kalmotajlangan tuproqlar; 12-voha oʻtloqi saz tuproqlar; 13-sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlar; 14-tipomorf ionlar; 15-sizot suvi sathi; 16-biogen akkumulyatsiya va tabaqalanish.

3-rasm. Soʻx daryosi konus yoyilmasi va sohili ladshaft-geokimyoviy kesmasi.

Bu tuproqlardagi tuzlar miqdori kamayib borish tartibiga koʻra quyidagicha joylashtiriladi: misol uchun,

sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir: $Ca(HCO_3)_2 > MgSO_4 > CaSO_4 > NaCl, Na_2SO_4$;

eskidan sugʻoriladigan kalmotajlangan: $MgSO_4 > Ca(HCO_3)_2 > CaSO_4 > NaCl, Na_2SO_4$;


eskidan sugʻoriladigan oʻtloqi saz: $CaSO_4 > MgSO_4 > Ca(HCO_3)_2 > NaCl > Na_2SO_4$;

sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlar: $CaSO_4 > MgSO_4 > Ca(HCO_3)_2 > NaCl > Na_2SO_4$ va boshqalar shu tariqa davom ettiriladi.


Sizot suvlari oʻrtacha minerallashtgan boʻlib, quyidagicha tuzlar tarkibiga ega. Voha oʻtloqi saz tuproqlarining sizot suvlari: $MgSO_4 > CaSO_4 > Ca(HCO_3)_2 > NaCl > Na_2SO_4$;

Sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlarining sizot suvlari: $MgSO_4 > CaSO_4 > Ca(HCO_3)_2 > NaCl > MgCl_2$.

Cho'l mintaqasi o'tloqi saz tuproqlarida tuzlarning tuproq qatlamlarida cho'kib qolish qonuniyati quyidagicha kechadi, bu qonuniyat boshqa landshaftlarda biroz o'zgarishi mumkin:



Bu tuproqlardagi tuzlarning taqsimotiga boshqa omillar qatorida bug'lanuvchi va ikkiyoqlama geokimyoviy baryerlar ta'sir qiladi. Shu bois ionlarning migratsiya jadalligi quyidagi kamayuvchi tartib bilan joylashtiriladi.



Polinov va Perelmanlarning migratsiya qatorlariga ko'ra xlor va oltingugurt o'rganilgan cho'l mintaqasi va bo'z tuproqlar kamari tuproqlarida kuchli guruhga kiradi, suvdagi migratsiya koefitsiyenti (Kx) 60-600 oralig'ida tebranadi. Bu kattaliklarda B, Br, J ham yaxshi migratsiyalanadi. Kationlardan kalsiy, magniy, natriy nisbatan yuqori Kx ga ega. Ularning bu xususiyati illyuvial-karbonatli qatlamlarda tuproq xossalari va geokimyoviy baryerlar bilan nazorat qilinadi.

Xlorning migratsiya koefitsiyenti yuqori bo'lib, uning qiymati 52,2-475 oralig'ida joylashadi. Lekin o'tloqi saz tuproqlarda 52,2-104,5, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir tuproqlarda 250-400, kalmotajlangan tuproqlarda Kx kesma bo'ylab deyarli bir xilligi qiziqarli holat. Bu holatni agroirrigatsion qatlamdagi deyarli bir xil bo'lgan mexanik tarkib bilan ifodalash mumkin. Yana Ca^{++} va Mg^{++} ning Kx o'tloqi saz tuproqlarda boshqa tuproqlarga nisbatan yuqori ekanligi, natriyning yuqori Kx esa kalmotajlangan va sur tusli qo'ng'ir tuproqlarga to'g'ri kelishi ham qiziqarli dalillar qatoridan joy oladi. Sur tusli qo'ng'ir tuproqlarda kalsiyning suvdagi migratsiya koefitsiyenti 3,05-4,67, kalmotajlangan tuproqlarda 3,81-4,09, o'tloqi saz tuproqlarida esa 4,78-5,60 ni tashkil qilishi alohida ifodalanadi.

Bu borada natriyning suvdagi migratsiya koefitsiyenti biroz boshqacha, ya'ni o'tloqi saz tuproqlarida (0,31-0,55) sur tusli qo'ng'ir tuproqlariga va kalmotajlangan tuproqlarga nisbatan pastroq (1,0-3,33).

O'tloqi saz tuproqlarining kesmasida natriyning Kx deyarli o'zgarmaydi. Tuproqdagi natriy ionning faolligi tuproqning qator xususiyatlarini, jumladan sho'rtoblik darajasini baholaydi. Bu ko'rsatkich bo'yicha tadqiqotga tortilgan tuproqlar Zirin, Orlov, Chausov tasnifiga ko'ra sho'rtoblanmagan tuproqlar qatoridan joy oladi, boshqa holatlarda ham shu tasnifdan foydalanish tavsiya etiladi.

Tuproq eritmasi konsentratsiyasi bilan natriy ion o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish ijobiy bo'lib, 0,35-0,73 ni tashkil qiladi. Bu kabi hisoblash ishlari uchun R.Qo'ziyev, G.Yuldashevlar (2004) ishlab chiqqan EHM dasturidan foydalanish ishni osonlashtiradi.

Singdirilgan kationlar tarkibi va xususiyatlarini tadqiq etish

Bo'z tuproqlar va cho'l mintaqasi tuproqlariga singdirilgan kationlarning, ya'ni Ca^{++} , Mg^{++} , K^+ , Na^+ ning singdirilgan miqdori, ularning atom massasi, ion va atom

radiusi, ion potentsiali, energetik konstantalariga bog'liq ravishda kechadi. Ushbu ishni boshqalardan farqi ham yuqoridagi xususiyatlarni e'tiborga olishda hisoblanadi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Ca^{++} va Na^+ kationlarining ion radiuslari deyarli bir xil, ya'ni 0,100 nm atrofida, shuning uchun ular tuproq singdirish kompleksi (TSK) da o'zaro erkin bir-birlarini almashtira oladi.

Bo'z tuproqlar va cho'l mintaqasi tuproqlarining TSK ni shakllanishida singdirilgan Ca^{++} Na^+ ga nisbatan jiddiy ko'p, bu holat Ca^{++} va Na^+ larni ion potentsiali va energetik konstantalari bilan bog'lab olib boriladi.

1-jadval.

TSK ga Ca^{++} , Mg^{++} , K^+ , Na^+ larni singdirilishini kationlarning geokimyoviy xususiyatlariga bog'liqligi (haydov qatlami, n-7)

Kationlar	Atom massasi	Bokiy bo'yicha ion radiusi, nm	Bokiy bo'yicha atom radiusi, nm	Ion radiusi ln *)	Kartledj bo'yicha ion potentsiali *)	Fersman bo'yicha EK *)	O'rtacha miqdori, mg-ekv/100 g tuproq uchun	
							bo'z tuproqlar	cho'l mintaqasi tuproqlari
K^+	39	0,133	0,236	-2,0	0,75	0,428	0,92	0,72
Ca^{++}	40	0,104	0,197	-2,26	1,92	1,786	8,57	6,35
Na^+	23	0,098	0,189	-2,3	1,02	0,448	0,12	0,34
Mg^{++}	24	0,074	0,160	-2,6	2,70	1,906	1,41	3,25

*) – mualliflar tomonidan hisoblanadi.

Kartledj bo'yicha ion potentsiali quyidagi formula yordamida topiladi:

$$J = \frac{W}{10R}, \text{ bu yerda } W - \text{ kation valentligi, } R - \text{ ion radiusi, } J - \text{ ion potentsiali.}$$

$$\text{Fersman bo'yicha energetik konstanta: } EK = \frac{W^2}{20R} \cdot 0,75(10R + 0,2) \text{ formula}$$

yordamida hisoblanadi.

Kartledj bo'yicha ion potentsialini hisoblaganimizda kalsiyni bu boradiga ko'rsatkichi natriyga nisbatan 2 barobar ortiqqligi kuzatildi. Shunga o'xshash ko'rsatkichlar singdirilgan Mg^{++} va K^+ ga ham xos. Singdirilgan kationlarning ion potentsiali bilan energetik konstantalari o'rtasida o'rganilgan tuproqlar uchun korrelyatsion bog'lanish ijobiy bo'lib, +1,0 ni tashkil qiladi.

Singdirilgan kationlar ichida sug'orishlar ta'sirida Mg^{++} kationida sezilarli o'zgarish bo'lganligi kuzatiladi. Bu ko'rsatkichga ko'ra o'tloqi saz tuproqlari ajralib turadi va singdirilgan magniy miqdori bu tuproqlarda singdirish sig'imiga nisbatan 24,3-39,7% ni tashkil etadi. Boshqa tuproqlarda o'zgarishi mumkin.

So'x konus yoyilmasi voha tuproqlari, sug'oriladigan tuproqlari o'zlarining singdirilgan kationlari tarkibida singdirilgan magniyning nisbatan ko'pligi bilan boshqa tuproqlardan farq qiladi. Singdirilgan kalsiy kationi miqdori bu tuproqlarda singdirish sig'imiga nisbatan 50,2-69% ni tashkil qilgan holda, singdirilgan magniy miqdori 24,3-39,7% ni tashkil qiladi.

Singdirilgan natriy miqdori tadqiqot olib borilgan tuproqlarda singdirilgan kationlar summasiga nisbatan 2,60-4,23% oralig'ida tebranadi va bu ko'rsatkich bo'yicha sho'rtoblanmagan tuproqlar qatoridan joy oladi.

So'x konus yoyilmasi tuproqlarida, xususan cho'l mintaqasining hamma kesmalarida u yoki bu miqdorda $MgSO_4$ tuzi mavjud, qolaversa qayd etilganidek, bu tuproqlarda singdirilgan Mg^{++} ning miqdori ham ko'p bo'lib, singdirish sig'imiga nisbatan 24-39,7% ni tashkil qiladi. Bu holatni aniqlash katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'x konus yoyilmasi suvli so'rim va sizot suvlari tarkibida ham magniy sulfat tuzining nisbatan ko'pligi kuzatildi. Bu holat, ya'ni singdirilgan kationlar tarkibida, suvli so'rim, sizot suvlari tarkibida magniy kationini nisbatan ko'pligi hududda kuchsiz darajadagi magniyli geokimyoviy provinsiya borligidan dalolat beradi.

Bo'z tuproqlar va konus yoyilmalar tuproqlarining agrokimyoviy tavsifini berish

Misol uchun to'q tusli bo'z tuproqlar kesmasining ustki qatlamida (0-22 sm) gumus miqdori nisbatan ko'p bo'lib (2-jadval), 2,43% ni tashkil qiladi. Quyi tomon gumus miqdori keskin kamayadi, 22-38 sm da uning miqdori 1,4%. Keyingi qatlamlarda bu ko'rsatkich 0,52% ni tashkil qilgan holda, onalik jinslari chuqurliklarida 0,3% ni tashkil qiladi. Bu kabi kattaliklarni jadvalda yoki grafikda berish mumkin.

Bo'z tuproqlarning boshqa tipchalarida ham shu kabi qonuniyat nisbatan kuchsizroq ko'rinishda qaytariladi. Gumusni bu kabi taqsimoti bo'z tuproqlarga xos xususiyat hisoblanadi. Xuddi shu kabi olingan natija isbotlanadi.

2-jadval.

Bo'z mintaqa tuproqlariga agrokimyoviy tavsif.

Kesma №	Chuqurligi, sm.	Gumus, %	Yalpi, %			C:N	Harakatchan, mg/kg	
			N	P ₂ O ₅	K		P ₂ O ₅	K
Sugʻoriladigan toʻq tusli boʻz								
1	0-22	2,430	0,210	0,20	2,32	7,7	19,5	430
	22-38	1,390	0,141	0,166	2,31	3,9	7,7	282
	38-68	0,520	0,055	0,120	2,01	5,9	-	-
	68-101	0,300	0,033	0,127	2,10	5,7	-	-
Sugʻoriladigan tipik boʻz								
2	0-25	1,711	0,140	0,190	2,10	7,6	13,5	390
	25-38	0,910	0,090	0,134	1,80	6,4	6,7	271
	38-72	0,650	0,070	0,130	1,83	5,8	-	-
	72-120	0,270	0,031	0,120	1,95	5,4	-	-
Sugʻoriladigan och tusli boʻz								
3	0-28	1,010	0,10	0,187	2,0	6,3	14,5	291
	28-39	0,610	0,070	0,101	1,70	5,5	5,7	197
	39-86	0,430	0,051	0,120	1,80	5,0	-	-
	86-110	0,210	0,027	0,110	1,90	4,8	-	-

Cho'l mintaqasining sug'oriladigan tuproqlariga gumusning kesma bo'ylab asta-sekinlik bilan kamayishi xarakterli. Boshqa mintaqalarda, konus yoyilmalarda boshqacharoq bo'lishi mumkin, lekin shu tariqa tasvirlanishi tavsiya etiladi.

3-jadval.

Cho'l mintaqasi tuproqlarining agrokimyoviy xarakteristikasi.

Kesma №	Chuqurligi, sm.	Gumus, %	Yalpi, %			C:N	Harakatchan, mg/kg	
			N	P ₂ O ₅	K		P ₂ O ₅	K
Sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir tuproqlar								
4	0-35	0,810	0,08	0,110	2,01	6,3	17,50	170,5
	35-50	0,701	0,080	0,114	2,75	5,54	9,3	140,5
	50-85	0,224	0,030	0,093	2,30	6,0	-	-
	85-130	-	-	0,074	1,85	-	-	-
Eskidan sugʻoriladigan kalmotajlangan tuproqlar								
5	0-35	1,03	0,10	0,120	2,30	6,5	22,5	170,5
	35-50	0,950	0,09	0,115	2,75	6,6	11,10	150,5
	50-85	0,630	0,070	0,087	2,40	6,2	-	-
	85-130	-	-	0,130	1,80	-	-	-
Eskidan sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlar								
6	0-35	0,905	0,09	0,131	1,85	6,4	22,10	210,3
	35-50	0,605	0,06	0,115	1,77	6,2	11,10	155,0
	50-85	0,310	0,027	0,044	1,50	6,6	-	-
	85-130	0,210	0,020	0,120	1,50	6,4	-	-
Yangidan sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlar								
7	0-35	1,210	0,180	0,127	1,91	4,5	18,5	200,1
	35-50	0,705	0,100	0,120	1,87	4,4	8,10	148,5
	50-85	1,110	0,140	0,147	2,03	4,9	-	-
	85-130	0,600	0,080	0,115	1,61	4,7	-	-

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining ba'zi ayirmalarida chuqurlashgan sayin gumus miqdorining keskin o'zgarishi 50-85 sm chuqurlikda kuzatiladi, bu holat ko'milgan gumusli qatlamlar bilan bog'liq. Bunday holatlar konus yoyilmalarda albatta tushuntirilishi kerak bo'ladi.

Uglerodning azotga nisbati (C:N) chuqurlashgan sayin sekin astalik bilan kamayadi yoki bir xil qolib, bo'z tuproqlarda 4,8-7,6 ni, cho'l mintaqasi tuproqlarida esa 4,4-6,6 ni tashkil qiladi.

Konus yoyilma tuproqlarida biomikroelementlar geokimyosini o'rganish


Ushbu mavzuni tadqiq etish G.Yuldashev, D.Xoldarov ishlari, ya'ni geokimyoviy tadqiqotlar metodikasi asosida olib boriladi va ayrim o'zgartirishlar kiritiladi.

Ma'lumki, elementar landshaftlar eng yosh geografik fanlar qatoridan joy olgan landshaftlar geokimyosi kursidan joy oladi. Elementar landshaft turli olimlar tomonidan xilma xil ta'riflanadi. Jumladan, B.B.Polinov bo'yicha asosiy

adabiyotlarda elementar landshaft tariqasida qabul qilingan, I.V.Larin bo'yicha fasiya, V.N.Sukachev bo'yicha esa biogeotsenoz deb tavsiflanadi.


Hozirgi kunda landshaft geokimyosini o'tilishida B.B.Polinov tomonidan tavsiya etilgan, ya'ni ishlab chiqilgan elementar landshaftlarni asos qilib olib, ya'ni elementar landfashtlarni paragenetik (juft genetik) aloqadorlikda o'rganish geokimyoviy landshaftlarni tavsiflashda yaxshi natijalarga olib keladi.

Eng avvalo elementar landshaft geokimyoviy landshaftlarni uzviy qismi ekanligi va u atmosfera, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq, tuproqning onalik jinsi, onalik jinsni vujudga keltiruvchi har xil darajada nuragan tog' jinslari, sizot suvlari, yer osti suvlaridan iborat bloklarga va ularni o'zaro aloqadorlikda ekanlagini doskada yoki elektron variantda talabalarga quyidagicha tasvirlab berish yaxshi natijalarga, tinglovchi va ko'ruvchida kuchli ta'surotlarga olib keladi.




4-rasm. Elementar landshaft bloklari va ularning aloqadorligi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, elementar landshaftlarni tabiatdagi mustaqilligi nisbiy bo'lib, ular M.A.Glazovskaya ko'rsatganidek, kaskadli geokimyoviy landshaft tizimida joylashadi va ochiq yoki yopiq tizim holatiga ko'ra o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Bu aloqadorlikni va elementar landshaftni kaskadli geokimyoviy landshaft tizimidagi o'rnini M.A.Glazovskaya bo'yicha quyidagicha tasvirlash mumkin.



5-rasm. Eiyilish asosidagi landshaft-geokimyoviy tizimning kaskadda joylashuvi.



6-rasm. Konsentratsiyalanish asosidagi landshaft-geokimyoviy tizimning kaskadda joylashuvi.

Shartli belgilar: E – eiyuvial holatdagi elementar landshaftlar; TE – transelyuvial holat; TA – transakkumulyativ holat; A – akkumulyativ holat; elementlar va birikmalarning suvdagi migratsiyasi; elementlar va birikmalarning havodagi migratsiyasi.

E'tibor bersak, yoyilish va akkumulyatsiyaga tayangan kaskadli landshaft-geokimyoviy tizimlarning oxirida transelyuvial va akkumulyativ elementar landshaftlar joylashgan, ya'ni birinchisi ochiq tizimli bo'lib, elementlar, birikmalarning harakati davom etadi, demak har xil oqimlar orqali dengiz va okeanlargacha borib etadi. Ikkinchi holatda esa zanjir ichki havzada, ya'ni maxsus, sizot suvlari oqib chiqib ketmaydigan hududlarda, arid iqlim mintaqalarida, sho'rxoklarda geokimyoviy landshaftni nisbatan yuqori joylashgan elementar landshaftlaridan oqib kelgan oqim mahsulotlari akkumulyatsiyalanadi, ko'pincha sho'rxokli dahalarni tashkil qiladi.

Elementar landshaftni kaskaddagi o'rni aniqlangandan keyin undagi geokimyoviy kattaliklar: elementlarning klark miqdori A.P.Vinogradov (1917) bo'yicha, konsentratsiya klarki, klark taqsimoti, biologik singdirish koeffitsiyenti, mahalliy migratsiya va boshqa koeffitsiyentlar, kattaliklar hamda geokimyoviy baryerlar A.I.Perelman (1975), landshaft-geokimyoviy rayonlashtirish, galogenetik va sulfidogenetik o'zgarishlar M.A.Glazovskaya (1973) va boshqalar ishlari asosida o'rganiladi. Bu o'rganishda elementar geokimyoviy landshaft asosini tuproq tashkil etilishi hamma vaqt talabalar va tadqiqotchilarning diqqat markazida turishi darkor. Chunki tuproq elementar geokimyoviy landshaftda ochiq polikomponentli, polifunksional tizim hisoblanadi. Tuproq aloqalar zanjirida moddalar va elementlar

oqimi, ulardagi energiya oqimini boshqaradi, ya'ni elementar geokimyoviy landshaft bloklari ichida eng asosiy hisoblanadi, aloqalar markazida turadi.

Shuni unutmaslik kerakki, tuproq ko'pchilik holatlarda garchand etakchi bo'lsada, boshqa bloklar bilan bir qatorda turadi. Yuqorida keltirilgan elementar geokimyoviy landshaftlarni bloklari landshaftning shakllanishida o'zaro teng mavqega ega, ya'ni ulardan birortasi bo'lmasa elementar geokimyoviy landshaft shakllanmaydi, qolaversa ularni o'zaro almashtirib ham bo'lmaydi.

Mavzuni tadqiqotida, o'tilishida yana shunga e'tibor berish kerakki, moddalar, elementlar landshaftlarda lateral va radial yo'nalishlarda quyidagi tartibda, ya'ni eng avvalo mobilizatsiya jarayonini o'z boshlaridan kechirgan holda, keyingi navbatda ular translokatsiya jarayonini, oxirgi bosqichda esa akkumulyatsiya jarayonini o'z boshidan kechiradi.


Harakat zanjirining birinchi bo'g'ini, ya'ni mobilizatsiya qismida nisbatan harakatsiz bo'lgan jismlardan murakkab va oddiy moddalar, kationlar va anionlar, suvda eruvchi gazlar, tuzlar, oksidlar, kolloid zarrachalar va boshqalar shakllanadi va migratsiyalana boshlaydi.

Ikkinchi bosqichda, ya'ni translokatsiyada migratsiya oqimidagi moddalar, tuzlar, anionlar, kationlar va boshqalar tarkibida hamda miqdorida katta o'zgarishlar sodir bo'lmasligi mumkin. Shu tufayli ularning oqimlarida qayta o'zgarish bo'lmaydi.


Uchinchi bosqichda endi akkumulyatsiya maydonidagi, asosan tuproqdagi fizik-kimyoviy holat, tuproq muhiti, undagi oksidlanish va qaytarilish jarayoni va boshqalarga hamda oqimdagilarning qator fizik-kimyoviy xossa va xususiyatlariga bog'liq ravishda akkumulyatsiya sodir bo'ladi.

Akkumulyatsiya jarayonida akkumulyatsiyalovchi va akkumulyatsiyalanuvchilarning tarkibiga bog'liq ravishda, sharoitga mos ravishda mutlaqo yangi moddalar, birikmalar hosil bo'lishi mumkin. qolaversa mobilizatsiya jarayonida hosil bo'lgan birikmalar va moddalar ichida o'simlik, hayvonot dunyosi hayoti uchun zararli, zaharli bo'lgan moddalar bo'lmasligi mumkin, ammo akkumulyatsiya jarayonida bundaylar hosil bo'lishi mumkin. Bunday holatga galogenez jarayonida sug'oriladigan tuproqlarda vaqtinchalik, ya'ni primitiv sodani hosil bo'lishini keltirish mumkin yoki tuproq xususiyatlariga miqdor jihatidan ko'payib ketganda salbiy ta'sir etuvchi gipsni arid iqlim mintaqasida shakllanishini aytish mumkin. Bu jarayonlar sxematik tarzda quyidagicha tasvirlanadi.

Gilgard bo'yicha, $\text{CaCO}_3 + \text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O} + 2\text{CO}_2 \rightarrow 2\text{NaHCO}_3 + \downarrow \text{CaSO}_4$ shuni alohida qayd etish kerakki, bu jarayon bizning cho'l mintaqasiga mansub tuproqlarimizda, xususan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarimizda sodir bo'ladi.



Boshqa bir misolni ham keltirish mumkin, unda desulfovibrio, desulfomaculum va boshqa bakteriyalar ishtirokida Orlov bo'yicha quyidagi biogeokimyoviy jarayon kechadi.



Bu jarayonlar gidromorf tuproqlar, xususan botqoq, botqoq-o'tloqi, o'tloqi botqoq tuproqli elementar geokimyoviy landshaftlar uchun xos. Bulardan tashqari yana geokimyoviy oqim zanjirida sizot suvlarining tarkibi va sifatini o'zgarishini keltirish mumkin. Uni baholashni ko'rsatish esa taqiqotchilar va talabalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Bunda suvning xususiyatlari nafaqat uning umumiy mineralizatsiyasiga bog'liq ekanligi, balki uning tarkibiy qismiga, undagi kationlar va anionlarning o'zaro nisbatlarining ahamiyatiga alohida to'xtab, sug'orish uchun baholashda hozirgi tasniflar bilan bir qatorda L.A.Richards formulasidan:

$$\text{SAR} = \frac{\text{Na}^+}{\sqrt{\frac{(\text{Ca}^{+2}) + (\text{Mg}^{+2})}{2}}} \text{ foydalanishga alohida e'tibor berish kerak va}$$

doskada yoki kompyuterda misollar asosida isbotlab berish yaxshi natijalarga olib keladi.

Xilma xil tabiiy-geografik sharoitlar, landshaftlarning tarixi va yoshini xilma xilligi, landshaft-geokimyoviy muhitni o'ta har xilligi unda elementlar, moddalar migratsiyasining ko'pligiga olib keladi.

Bu o'rinda shuni aytish mumkinki, elementar geokimyoviy landshaftlarni o'rganish bu geokimyoviy landshaft atomini o'rganishdir. Lekin bu jarayon nafaqat murakkab, balki bakalavrlar, magistrantlar, aspirantlar va boshqa tadqiqotchilar uchun zaruriy va qiziqarli tadqiqot usuli va uslublari qatoridan joy oladi.

Konus yoyilma uchun geokimyoviy landshaftning sifat tavsifini o'ziga xosligi elementar landshaftlarning o'zaro tutash holdaligi bilan xarakterlanadi.

Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida, jumladan So'x konus yoyilmasi geokimyoviy landshaftlarida o'simlik va tuproqdagi Cu, Zn, Mn, B, Mo kabi mikroelementlarning miqdori ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi, uni o'rganish usuli esa yetarli darajada yoritilmagan.

To'q tusli bo'z tuproqlarda boshqalarga nisbatan mis biomikroelementga boyligi aniqlandi. Bu tuproqlarda har xil chuqurlikda mikroelementlarning karbonatlar bilan birga cho'kib qolishini e'tirof etish mumkin. Tuproqlarning ustki qatlamlarida sulfatlar, xloridlar, karbonatlar bilan bir qatorda molibden, ruh,

manganets, mis va bor elementlari konsentratsiyalanadi, bu kattaliklar konsentratsiya klarki va klark taqsimoti orqali o'rganiladi.

Bu elementlar o'zlarining miqdori kamayishlari asosida quyidagi tartibda misol tariqasida ko'rsatiladi.

Haydov qatlami, yalpi va harakatchan:

to'q tusli bo'z: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Zn > Cu > B > Mo$;

tipik bo'z: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Cu > Zn > B > Mo$;

och tusli bo'z: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Cu > Zn > B > Mo$;

sur tusli qo'ng'ir: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Zn > B > Mo > Cu$;

kalmotajlangan: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Zn > B > Mo > Cu$;

eskidan sug'oriladigan o'tloqi saz: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Zn > B > Mo > Cu$;

yangidan sug'oriladigan o'tloqi saz: $Mn > Zn > B > Cu > Mo$; $Mn > Zn > B > Mo > Cu$.

Biomikroelementlarning radial va lateral geokimyoviy tabaqalanishi

Masalan, to'q tusli bo'z tuproqlarning gumusli qatlamida tuproq hosil qiluvchi jinslariga nisbatan $Mn > Zn > Cu > B > Mo$ yo'nalishda miqdori oshadi va radial tabaqalanish ko'effitsiyenti (Kr) ularda 1,1-2,8 ni tashkil qiladi. Tipik bo'z tuproqlarda bu taqsimot quyidagi ko'rinishda $Zn > Mn > Cu > B > Mo$ bo'lib, Kr 1,1-2,8; och tusli bo'z tuproqlarda esa $Mn > Cu > Zn > B > Mo$ ko'rinishda bo'ladi.

Radial migratsiya ko'effitsiyenti (Kr) ni topish uchun tuproqning ustki qatlamidagi miqdorini onalik jinsdagi shu element miqdoriga taqsimlash orqali topiladi. Lateral migratsiya ko'effitsiyenti esa konus yoyilmaning yuqori qismidagi element miqdorini quyi qismidagi shu elementga nisbati orqali hisoblanadi.

Ko'pchilik mikroelementlarni ustki qatlamlarda akkumulyatsiyalanishiga sabab o'simliklar tomonidan ichki qatlamlardan olinishi va organik moddalar bilan birga berilishi, ularni neytral hamda ishqoriy muhitda kuchsiz migratsiyalanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Cho'l mintaqasi tuproqlarining haydov qatlamida radial migratsiya ko'effitsiyenti yoki tabaqalanishi quyidagi qatorlarda aks ettiriladi.

Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir va kalmotajlangan $Cu > Zn > Mn > Mo > B$;

Eskidan sug'oriladigan va sug'oriladigan o'tloqi saz $Mn > Cu > B > Zn > Mo$, $Mn > Cu > Mo > B > Zn$.

Tipik va to'q tusli bo'z tuproqlarning haydov qatlamlarida biomikroelementlarning radial migratsiyasi bir xil: $Cu > Mo > Zn > Mn > B$; och tusli bo'z tuproqlarda bu ko'rsatkich boshqacharoq ko'rinishda, ya'ni $Zn > Cu > Mn > Mo > B$. Och tusli bo'z tuproqlardagi holat illyuvial karbonatli qatlamni deyarli ochilib qolishi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatiladi.

Sur tusli qo'ng'ir, qalmotajlangan, o'tloqi saz tuproqlarida elementlarning lateral migratsiya ko'effitsiyenti deyarli bir hil, ya'ni $Mo > Cu > Mn, B > Zn$ qatorini

tashkil qiladi. Bu holat ushbu tuproqlarni cho'l mintaqasiga mansubligi bilan bog'liqligi isbotlanadi.

Biomikroelementlarning biologik singdirish ko'effitsiyenti qatorini tuzish

